

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

HOJIYEV RASULBEK

MA'NAVIYATSHUNOSLIK FANIDAN

Referat

**MAVZU: MAMLAKATIMIZDA MA'NAVIYAT SOHASIGA BERILAYOTGAN
E'TIBORNING DAVLAT SIYOSATI DARAJASIGA KO'TARILISHI.**

URGANCH-2015

REJA:

- 1. Manaviyatga e'tibor- xalq kelajagiga e'tibor.**
- 2. Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi.**
- 3. Prezidentimiz I.Karimov asarlarida ma'naviyt masalalari.**
- 4. Ma'naviyat sohasida amalgam oshirilayotgan isloxatlar.**

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Manaviyatga e'tibor- xalq kelajagiga e'tibor

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarida fan va amaliy faoliyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat mafkurasining ilmiy adabiyotlarda chuqur, mukammal yoritib berilmagan juda ko'plab nazariy muammolari hozirgi davrning dolzarb masalalari bilan bog'liqlikda yoritib berilgan.

Prezident asarlarida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qoidalar va xulosalar o'zining mohiyat e'tibori, mazmuni bilan mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifatni tiklash va rivojlantirish hamda bu sohadagi muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz tomonidan ma'naviyat va ma'rifatning hamda mafkuraning eng zarur murakkab muammolari bo'yicha ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab berilgan qoida va xulosalar tamomila yangiligi, mazmunan kengligi va zamonaviyligi, milliy va umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar ruhi va talablariga to'la hamohangligi, faqat hozirgi davr uchungina emas, balki istiqboldagi manfaatlar yo'lida ham xizmat qilishi bilan e'tiborga sazovordir.

Islom Karimov asarlarida ma'naviyat va ma'rifatning hamda mafkuraning ilmiy-nazariy asoslab berilgan dolzarb muammolari tizimi tarkibidagi quyidagi muhim tamoyillarni alohida qayd etib ko'rsatish mumkin:

- Yurtboshimizning insoniyat ijtimoiy-falsafiy fikrlari taraqqiyotiga qo'shgan yirik nazariy yangiliklaridan biri - ma'naviyat, ma'rifatga va mafkura tushunchalariga chuqur ilmiy ta'rif berganligidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga erishguniga qadar ijtimoiy fanlarda ma'naviy va ma'rifiy masalalar ilmiy jihatdan to'la yoritib berilgan emas edi;

- mustamlakachilik yillarida yaratilgan asarlarda o'zbek madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati, milliy qadriyatlari, kamsitilibgina qolmay, balki bu mavzularda ilmiy tadqiqotlarni olib borishga ham turli yo'llar bilan to'sqinlik qilib kelinardi. Buning muayyan sabablari bor edi, albatta.

Milliy ong, milliy g'urur va iftixor yuksak milliy madaniyat ma'naviyat-ma'rifat zaminida shakllanishi va rivojlanishi mumkinligini juda yaxshi bilgan sobiq sovet tuzumi rahbarlari milliy ma'naviyat va ma'rifatning o'sishi yo'lida turli g'ovlar tashkil etgan edilar. Hukmron siyosat tarafdorlari milliy ma'naviyat va ma'rifat rivojlanmay, inqirozga uchragan, tanazzulga yuz tutgan milliy mafkura barbod etilgan bo'lsa, jamiyat va millat muqarrar ravishda qoloq bo'lishini juda yaxshi bilishardi. Shu boisdan ham ular «milliy g'urur va iftixor», «milliy ong», «milliy madaniyat», «milliy ma'naviyat va ma'rifat» kabi atamalar kishilarda milliy kayfiyatning uyg'onishi va o'sishiga turtki bo'ladi, - deb cho'chirdilar. Milliy ong va milliy ma'naviyatning o'sishi va rivojlanishiga shu tariqa millatchilik deb qaradilar. Milliy madaniyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilish ham milliy ong va ma'naviyatni zaiflashtirishga bo'lgan intilishdan boshqa narsa emas edi. Milliy ma'naviyatning istifoda etilishi, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, falsafiy hayotimizda qo'llanila boshlaganligi, ma'naviyat va ma'rifatning tiklanayotganligi, ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni qad rostlayotganligi muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov va uning ilmiy-amaliy faoliyati bilan bevosita bog'liq.¹

Ma'naviyat va ma'rifat muammolari mazmuni va mohiyatining chuqur yoritilganligi, hayotga joriy etish yo'l-yo'riqlarini ilmiy jihatdan asoslab berganligi Islom Karimovning buyuk ilmiy jasoratidir. Uning asarlarida ma'naviyat insonga mohiyat, faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi, jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib, birlashtirib, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlab turuvchi muhim omil sifatida qaralgan. Insonning ongli faoliyati va salohiyatining har qanday ko'rinishi va shaklini ma'naviyat deb bo'lmaydi. Balki faqat inson amaliy faoliyatining ijtimoiy-ruhiy-ma'naviy ahamiyat kasb etadigan fazilatlarining jaminigina ma'naviyat deyish mumkin. Ma'naviyat keng ma'noli, mohiyatan chuqur tushunchadir. Ma'naviyat inson ruhiy, aqliy-axloqiy olamining majmui ekanligi Islom Karimov asarlarida belgilab berilgan.

¹ "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi

«O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida ma'naviyat insoniylikka olib boradigan yo'ldir, deb ta'riflangan ana shu qisqa va lo'nda ta'rifda olam-olam ma'no-mazmun bor.

Ma'naviyatning mohiyati, milly ma'naviyat, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot, istiqbolimiz va shaxs kamoloti uchun beadad ahamiyati yo'l boshchimizning «O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlari hamda Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzasida ham o'zini chuqur ilmiy ifodasini topgan. «Turkiston» ro'znomasi muxbirining savollariga javoblarida Islom Karimov «Ma'naviyat-uzluksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doimo o'zgarish va yangilanishda bo'ladi. Ma'naviyat deganda avvalambor odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman»¹, - deb ta'kidladi. Ana shu g'oya muallifning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida ham yana bir bor qayd etib o'tilgan.

Insonning inson degan buyuk nomga loyiqligi, jamiki go'zal xislat va fazilatlar sohibi ekanligi ma'naviyat tufaylidir. Insonning insonligi, yeb-ichishi, o'ziga zeb berishi, nasl qoldirishi, o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishida emas, balki yuksak ma'naviyati, odob-axloqi, ta'lim-tarbiyasi, fe'l-atvori, aql-idroki va tafakkuridadir.

Ma'naviyat insonga insoniy mohiyat baxsh etadi. Odamlarni hamisha va har doim to'g'ri yo'lga boshlaydigan, insofli-tavfiqli, mehr-oqibatli, muruvvatli, sahovatli, bag'ri keng, muloyim-mayin bo'lishga da'vat etadigan, surati bilan siyrati, zohiri bilan botini, so'zi bilan ishi bir-biriga mos bo'lishini har soniya va har daqiqada ko'ngliga solib, diliga jo qilib turuvchi ruhiy omil - bu ma'naviyatdir.

Ma'naviyati yuksak, iymon-e'tiqodi mustahkam, vijdonli, odob-axloqli odam har qanday sharoit va vaziyatda ham insoniylik yo'lidan og'ishmaydi, nopoklik sari

¹ Islom Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T., «O'zbekiston», 1999, 302-303-betlar.

qadam bosmaydi, or-nomusini qoʻldan bermaydi, vijdoniga teskari ish qilmaydi, odamiylikni oʻzi uchun muqaddas deb biladi.

Maʼnaviyatga Prezident tomonidan yuqorida berilgan taʼrif uning jamiyat va inson faoliyatining xilma-xil sohalari bilan uzviy bogʻlanib ketganligini bildiradi. Maʼnaviyatning mazmunan chuqurligi uning butun moddiy va maʼnaviy boyliklar, barcha ijtimoiy va insoniy munosabatlar, axloqiy qoidalar va huquqiy meʼyorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarda ifodalanadi.

Har qanday milliy boylik ham u yoki bu millat, xalqning maʼnaviyati asosi, uning negizini tashkil etadi. Milliy til ham milliy maʼnaviyatning tarkibiy qismidir.

Prezident Islom Karimov maʼnaviyatga bergan taʼrifida vijdon, imon-eʼtiqodni, halollik va poklikni «insonni inson darajasiga koʻtaradigan asoslarning asosi» deb koʻrsatadi. Insonning insonligi uning maʼnaviyatida namoyon boʻladi. Maʼnaviyat inson qalbini tozalashtiradi, uni savobli, ezgu ishlarga chorlaydi. Maʼnaviyatda insonning iymoni, eʼtiqodi, axloqi, hayotning maʼnosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon boʻladi. Vatan, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak maʼnaviyat belgisidir. Maʼnaviy barkamol inson - oʻzining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi, - deydi Yurtboshimiz.

Insonni ulugʻlaydigan, goʻzallashtiradigan jamiki xislat va fazilatlar Islom Karimov tomonidan taʼkidlanganidek, maʼnaviyatdir. Maʼnaviyat barcha ezguliklar va insoniylikni oʻz ichiga qamrab oladi. Insonning insonligi olamning sarvari, mavjudotlar gultoji ekanligi uning maʼnaviyatida oʻz ifodasini topadi.

Maʼnaviyat boshqacha aytganda, odamlar oʻrtasidagi yuksak odob-axloq meʼyorlari, huquqiy mezonlar, mafkuraviy eʼtiqodlarga asoslangan adolatli, insonparvarlik, halollik, baynalmilallik bilan sugʻorilgan munosabatlarning koʻrinishidir. Har bir shaxsning odamlar bilan oʻzaro hamkorlik, hamjihatlik, ahillik, doʻstona munosabatga intilishi ham maʼnaviyatdir. Jamiyatning oʻzi ham kishilar oʻrtasidagi maʼnaviyatga asoslangan munosabatlarning ifodasidir.

Prezident tomonidan koʻrsatilishicha, maʼnaviyatning maʼnosi shu qadar keng va chuqurki, inson uni oʻz aqli bilan butunlay qamray olmaydi. Buning uchun u zahmat chekib mehnat qilishi, uzoq tayyorgarlikni boshidan kechirishi lozim boʻladi.

Ana shundagina u ma'naviyat bilan tutashadi. Islom Karimov o'zbeklarning kattalarni hurmatini, kichiklarning izzatini joyiga qo'yishlarini, qo'ni-qo'shnilarini mehr to'rida saqlashlarini, saxvotpeshaliklarini ham ma'naviyat tushunchasi tarkibiga kiritadi. Bu o'rinda Yurtboshimizning Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida aytgan quyidagi so'zlarini keltirib o'tish o'rinlidir. «Nuroniylarimiz, munis onalarimizga hamisha hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ularning xizmatini qilib, duosini olish, jajji go'daklarga, aziz farzandlarimizga g'amxo'rlik qilish, ularni ardoqlashdek xalqimizga xos bo'lgan, asrlar davomida saqlanib kelayotgan olijanob odatga har birimiz sodiq bo'lishimiz, uni asrab-avaylashimiz, rivojlantirishimiz ham farz, ham qarzdir»¹.

Prezident asarlarida ma'naviyatni ma'rifatsiz tasavvur etish mumkin emasligi haqidagi nazariy masalalar ham chuqur tahlil etilgan. Ta'kidlanganidek, ma'rifat bo'lmagan joyda ma'naviyatga putur yetadi. Jamiyat taraqqiyotining turli holatlarini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotini ilgarilab borishining ma'naviy negizlarini tushunib olish, ma'naviyat asoslari, odob-axloq qoidalari va huquqiy me'yorlarni kishilar ongiga singdirish va real voqeylikka aylantirish uchun, eng avvalo, ma'rifat, ilm-u urfon kerak.

¹ Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. T., «O'zbekiston», 2000, 342-bet.

2. Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi.

Ma'naviyat haqidagi tasavvur va tushunchalar, bilimlar va g'oyalarning hayotga joriy etilishi anchayin murakkab jarayondir. Ma'naviyat muayyan ma'rifiy tadbirlar tizimida shakllanadi, inson ongi, qalbi, tafakkuriga singib dunyoqarash va amaliyot uchun asos bo'ladi. Amaliyotda qo'llanilmaydigan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat asoslarining jamiyat taraqqiyoti, inson kamoloti uchun amaliy, tarbiyaviy ahamiyati bo'lmaydi.

Ana shu jihatdan olib qaraganda Prezidentning ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro aloqadorligi xususida bildirgan quyidagi fikrlari amaliy faoliyatda muhim ilmiy-nazariy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi: «Ma'rifat-ma'naviyatga olib keladigan yo'l. Butun qilayotgan yaxshi ishlarimiz kelgusi avlod barkamolligi uchun xizmat qilishi shubhasiz. Bugun qanday ko'chat eksak, ertaga shunday meva olamiz. Yosh avlodni el-yurtga, Vatanga sadoqatli, iymon-e'tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali, ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta'lim o'choqlarining alohida o'rni bor»¹.

Inson hech qachon va hech bir jamiyatda ma'naviyatsiz va ma'rifatsiz yashamagan va yashay olmaydi, degan nazariy fikr Prezident asarlarida ilmiy asoslab berilgan. Muallif asarlarida belgilab berilganidek, iqtisodiy-siyosiy, huquqiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish, jamiyat hayotining turli holatini, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning borishini, umuman inson hayotining borishini chuqur anglash va idrok etish uchun, eng avvalo, ma'rifat zarur. Ma'rifat insonlarni yaxshilikka, ezgulikka chaqiruvchi, yomonlikdan, xudbinlikdan va jaholatdan qaytaruvchi ma'naviy boylikdir. U insonni g'ayratli-shijoatli bo'lishiga sabab bo'ladi, e'tiqodini mustahkamlaydi. Insonning axloqiy-ma'naviy kamoloti ma'rifatga bog'liq.

Ilm-fanga, ma'rifatga ehtiyoj hech qachon va hech bir jamiyatda o'z ahamiyatini va zaruriyatini yo'qotmaydi. Ma'rifatga bo'lgan zaruriyat va ehtiyoj uning jamiyat taraqqiyoti uchun qanchalik muhimligi, ahamiyatini yo'qotmasligi bilan belgilanadi. Xalq soni bilan emas, balki sifati bilan qadrlanishi va ulug'lanishini

¹ Islom Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. 5-jild. T., «O'zbekiston», 1997, 350-351-betlar.

esdan chiqarmaylik. Bizning tasavvurimizcha, xalq va millatning sifati - uning ma'naviyati va marifatidadir.

Ilgarilari tabiati boy, aholisi ko'p bo'lgan mamlakatlar kuch-qudratli, eng boy, badavlat hisoblanadi, degan g'oya ustuvorlik qilardi. Islom Karimov ana shu g'oyaga muhim nazariy yangiliklar kiritdi. Uning fikricha, tabiiy boyliklar millat taraqqiyotiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi, lekin bu taraqqiyot o'sha omillarning tanho bir o'zi bilan emas, eng avvalo, mamalakatdagi donishmand va fidoyi insonlar, ongli, ma'rifatli, bilimli va tafakkuri yuksak odamlar faoliyati bilan bog'liqdir. U o'zining ana shu nazariy qoida va xulosasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida quyidagicha ifodalaydi: «Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir»¹.

Prezident asarlarida ilm-ma'rifat xalq va millatni ma'naviy kamolot va istiqbol sari etaklashi, unga kuch-quvvat manbai bo'lib xizmat qilishi uqtirilgan. Ma'rifatli xalqning siyosiy onggi o'sgan, fikri uyg'oq, tafakkuri teran, vijdoni tiyrak bo'ladi. Xalq va millatning taraqqiyoti va jami yutuqlari fuqarolarning, o'sib kelayotgan yosh avlodning ilm-ma'rifati, aqliy salohiyati, madaniyati, ma'naviyati, hunar va san'atiga bog'liqdir.

Abdulla Avloniy najot ilmu urfonda ekanligini, ma'rifatli xalq shijoatli bo'lishi, maorifdan, madaniyatdan bebahra bo'lgan xalq basir va so'qir bo'lib, jaholat panjalari orasida xamir kabi ezilishi muqarrarligini ko'rsatib shunday degan edi: «Ilm dunyoning izzati...Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirub berur. To'g'ri yo'lga raxnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur... Ilmning foydasi u qadar ko'pdirki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat

¹ Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. «O'zbekiston». T., 1997, 326-bet.

qorong'uligidan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ilmlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur»².

Darhaqiqat, ilm-ma'rifat ko'ngil ko'zini ochadi, qorong'ulikni ziyo nuri bilan yoritadi. Inson ilm yordami bilan ulug'lar darajasiga yetadi. Ilm-ma'rifat odamlarning hech ado bo'lmaydigan boyligidir. Inson o'z hulqi, millati, davlati va jamiyati oldidagi burchi va mas'uliyatini ilm-ma'rifat tufayli chuqur his qiladi va bilib oladi. Dunyoda ilmga teng keladigan boylik yo'q. Abu Rayhon Beruniy ilm har bir narsadan yuqori, hech narsa undan yuqori bo'la olmaydi, ega bo'linadigan narsalarning eng sharaflisi ilmdir, degan edi.¹

Ko'rinib turganidek, ma'naviyat yutuqlarini hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Har qanday yangi g'oyalar singari ma'naviyat-ma'rifat haqidaga yangi fikr va qarashlar ham o'z vaqtida ommaning ongiga chuqur singsa, hayotda qo'llanilsa o'shanda katta ijtimoiy kuchga aylanadi, jamiyat taraqqiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan teatrlar, muzeylar, nashriyotlar, kutubxonalar, kontsert zallari, madaniyat saroylari, radiotelevidenie, axborot vositalari, madaniy-ma'rifiy muassasalar, madaniy-ma'naviy taraqqiyot uchun xizmat qilmoqda. Ro'znomalar va jurnallarda e'lon qilinayotgan maqolalar, nashriyotlarda chop etilayotgan xilma-xil kitoblar va risolalar, teatrlarda sahnalashtirilayotgan spektakllar, ijro etilayotgan raqslar qo'shiqlar, kuylar-ohanglar, milliy, sharqona bezaklar, kitobotlar, xalq xunarmandchiligining nodir bezaklari, moddiy-ma'naviy madaniyat javohirari - bularning barchasi kishilar ongiga madaniy-ma'rifiy g'oyalarni singdiradi, juda katta mafkuraviy vazifani bajaradi. Odamlarni ezgulikka chorlaydi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimiz rivojiga ko'maklashadi, o'tmish tariximiz va ajdodlarimiz merosi, ma'rifatga bo'lgan mehr-

² Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T., «O'qituvchi», 1967, 34-bet.

¹ "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // Xalq so'zi. - Toshkent: 2006. - 25 avgust.

muhabbatimizni kuchaytiradi. Ana shularning hammasi ma'naviyat va ma'rifat bir-biri bilan zanjir kabi chambarchas bog'langanligiga, ma'rifat-ma'naviyatga olib boradigan yo'ldan iboratligiga dalolatdir.

Ma'naviyat va ma'rifatning uzviy birligi, o'zaro ta'siri masalasi Prezident Islom Karimovning ilmiy-amaliy faoliyatida katta o'rin tutib kelayotganligi quvonarli hodisadir. Yuksak ma'naviyat va ma'rifatga asoslangan jamiyat qurish, mustaqillikni mustahkamlash, barkamol avlodni voyaga yetkazish uning siyosatida ustuvorlik qilib kelmoqda. «Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shu bilan birga hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakkam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin»¹.

Ma'naviyatimizning bosh homiysi bo'lgan Prezident O'zbekiston Respublikasi oldida turgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-huquqiy, xalq ta'limi, maorif sohalaridagi vazifalarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda ko'plab, amaliy ishlarda bosh-qosh bo'lib kelmoqda. Uning Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish», «Manaviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida», «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi qoshidagi «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi, «Ma'naviy va ma'rifiy» islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi hamda boshqa shularga o'xshash Farmonlari diqqat-e'tiborga sazovordir.

¹ Islom Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. «O'zbekiston». T., 1997, 325-bet.

Islom Karimovniig doimiy e'tibori va rahnamoligida O'zbekiston ijodkor yoshlarining «Iste'dod» xayriya jamg'armasi, O'zbekiston ijodkorlar jamg'armasi, Respublika madaniyat jamg'armasi tashkil etilib, faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, «Kamolot», «Sog'lom avlod «Nuroni», «Ulug'bek», «Umid» jamg'armalarining ta'lim-tarbiya, ma'naviyat-ma'rifat sohasidagi ezgu ishlarini, o'sib kelayotgan avlodni jismonan sog'lom, axloqan etuk, ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qo'shayotgan hissasini alohida ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi. Tashkil etilgan ko'plab jamg'armalarning asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarni - ulug' ishlaramizning davomchilarini, yangilikka intiluvchilarni dunyoning ilg'or mamlakatlari obro'li oliy o'quv yurtlarida tahsil olishlari, o'z bilimlarini yanada chuqurlashtirishlari, fan-texnika, iqtisodiy va huquqiy bilimlarini zamonaviy mezonlar darajasida egallashlariga sharoit yaratish, yosh ijodkorlarga, olimlarga va tadqiqotchilarga ko'maklashishdan iboratdir.

Mamlakatimizning rahbari tomonidan ta'kidlanganidek, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish, yosh avlodni el-yurtga, Vatanga sadoqatli, iymon-e'tiqodli, ma'naviyati yuksak qilib shakllantirish uchun bugun qancha katta kuch, mablag' sarflayotgan bo'lmaylik, undan keladigan har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti madaniy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bilan bog'liq bo'lgan jamiyki masalalarni zudlik bilan hal etishni davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida qarab baho bermoqda. Madaniy-ma'rifiy negizni yaratmasdan turib islohotlarning bironta turini amalga oshirib bo'lmaydi. Islom Karimov ana shularni e'tiborga olib, iqtisodiy muammolarni hal qilishga ham, huquqiy tamoyillar va qonunlarimizning hayotga tatbiq etilishiga ham, siyosiy islohotlarga ham, juda ko'plab jahon muammolarining hal etilishiga ham madaniy-ma'rifiy nuqtai nazardan turib yondoshmoqda.

Prezident tomonidan belgilab berilganidek, yuksak ma'naviyat, rivojlangan madaniyat va ma'rifat kelajagimiz poydevoridir. Shu sababdan ham bu boradagi ishlarga mamlakatimizda alohida e'tibor berilayotir. «Xalqimiznnig kelajagi uchun suvday, havoday zarur bo'lgan bunday sohalarga birinchi va eng katta homiy-

davlatning o'zi. Ma'naviyat juda nozik tarbiyaviy soha. Buni o'zi - bo'larchilikka tashlab qo'yib bo'lmaydi»¹.

Davlatimiz har yili ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish uchun katta miqdorda mablag' ajratmokda. Respublikamizda barcha fanlar bo'yicha zamonaviy darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llan-malar, dasturlar yaratilyapti. Maorif sohasida «Ta'lim to'g'ri-sida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. «Tafakkur», «Hayot va qonun», "Qonun himoyasida», «Boshlang'ich ta'lim», «Xalq ta'limi», «Sog'lom avlod» nomli jurnallarning joriy etilishi madaniy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar rivojida katta hissa bo'ldi. Prezident Islom Karimov asarlarida ma'naviyat keng va chuqur ma'noli tushuncha ekanligi ta'kidlangan. Ma'naviyat va ma'rifat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Inson hayoti va faoliyatining ma'naviyat va ma'rifatga daxldor bo'lmagan biron-bir sohasi mavjud emas.

Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlar, odob-axloq qoidalari, huquqiy me'yorlarning zaruriy ravshida ma'naviyat va ma'rifatga asoslanishi va uzviy bog'liqligi o'z-o'zidan tushunarlidir. Insonning o'zini qurshab olgan tabiat, uning noz-ne'matlari bilan qanday munosabatda bo'lish ham birinchi navbatda uning ma'naviy etuklik darajasiga, iymon-e'tiqodiga, onglilik va madaniy-ma'rifiy yetukligiga bevosita bog'liqdir. Buni Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida ma'naviyatga bergan ta'rifidan juda aniq ko'rish mumkin: «Yer, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik - ma'naviyatning ma'nosi ana shunday juda keng»¹.

Islom Karimov tomonidan berilgan ta'rif ma'naviyatning mazmun va mohiyat jihatdan naqadar keng va chuqur, serqirra va murakkabligini isbotlab turibdi.

Prezident asarlarida ona zaminga, yerimizga bo'lgan mehr-muhabbatni ham ma'naviyat tushunchasi tarkibiga kiritilishida juda katta ma'no bor. Darhaqiqat, yer, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosiga, jamiki yer usti va yer osti boyliklariga

¹ Islom Karimov. Vatan sajdagop kabi muqaddasdir. 3-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 36-bet.

¹ Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 80-81-betlar.

qanday munosabatda bo'lish, ularni u yoki bu millatning milliy boyligi sifatida e'zozlash, qadrlash, avaylab-asrash, oqilona foydalanish, isrof qilinishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlashning asoslaridan biri-xalq va millatning, davlat va jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy yetuklik darajasidir.

Ma'naviy barkamol odam bilan ma'naviy tuban va qashshoq, johil kishilarning yer, suv, tuproq, umuman ona zamin va uning javohirlariga munosabati bir xil bo'lmaydi. Ma'naviyatli odamlar tabiat va uning betimsol boyliklariga o'zining shaxsiy ehtiyojlari nuqtai nazaridan emas, balki o'tmish ajdodlari, hozirgi davr kishilari va bo'lg'usi avlodlar-nasllar manfaatlarini ko'zlab va hurmat qilgan holda munosabatda bo'ladi, istiqbolni o'ylab ish tutadi, yetti o'lchab bir kesadi, millati, xalqi, davlati, jamiyati taqdiri va taraqqiyotiga befarq qaramaydi. Vatanining har bir siqim tuprog'ini ko'ziga to'tiyo qilib surtadi. Bitta daraxt kessa o'ntasini ekadi. Daryo va ko'l, ariq va hovuz, dengiz va bahri ummonlarning suvini iflos hamda isrof qilishni ko'rnamaklik deb biladi. Hayotimiz manbalaridan bo'lgan havoning ifloslanishidan dili ranjiydi. Suv, havo va tuproqqa hayotning asosiy unsurlari-javohirlari deb qarab, buyuk iymon-ixlosla munosabatda bo'ladi. Tabiatni, ona zaminni yanada obod, go'zal va ko'rkam qilishni o'zi-ning insoniy burchi va mas'uliyati deb biladi.¹

Ma'naviy qashshoq, xudbin, shaxsiyatparast kimsalarning milliy boylik va xalq ma'naviyatining asosi, negizi bo'lgan tabiat noz-ne'matlariga bo'lgan munosabati batamom o'zgachadir. Undaylar xalq va millatini emas, o'z manfaatini o'ylaydilar. Ona zaminimiz boyliklari - o'rmonlar, qazilma boyliklar, daryo va ko'llardagi baliqlardan, er va suvdan, hayvanotu nabototdan o'z nafsini qondirish, boyligiga boylik qo'shish g'ami va tashvishida yashaydi. Suv isrof bo'lsa, yer zaharlansa, havo buzilsa, daraxtlar nobud bo'lsa unga baribir, foyda kelsa bas!

Ma'naviy qashshoq odamlar yer, yer usti va yer osti boyliklari, suv o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylik hisoblanib, ulardan oqilona va odilona foydalanish zarurligi haqidagi axloqiy qoidalar va

¹ "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // Xalq so'zi. - Toshkent: 2006. - 25 avgust.

huquqiy me'yorlarga qat'iy amal qilish o'zlarining asosiy burchlari ekanligini ko'pincha unutib qo'yadilar.

Prezident asarlarida tabiat, tabiiy boyliklar insoniyat uchun moddiy ne'matlarning manbai sifatida ham, sog'liq, shodlik go'zallik turmushga mehr-muhabbatning va har bir kishidagi ma'naviy boyliklarning bitmas-tuganmas omili sifatida ham o'zining g'oyat zo'r ahamiyatini hech qachon yo'qotmasligi ilmiy asoslangan. Ana shu ma'noda olganda uning «O'zbekiston iqtisodiy islohot-larni chuqurlashtirish yo'lida» asarida bayon etilgan nazariy fikrlari muhim ahamiyatga egadir; «Ona zaminimiz-boyligimiz-ning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir. Buyuk ajdodlarimizning ruhi nurafshon qilib turgan, bizga ilhom berayotgan va egnimizni but, qornimizni to'q qilayotgan shu zaminga muhabbat bamisoli bitmas-tuganmas chashmadek qaynab turibdi. Inson butun vujudi bilan shu yurtga ta'zim qiladi. Shodiyona damlarda, musibatli onlarda ham biz undan madad olamiz, u bizga yangidan kuch beradi»¹.

¹ Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., «O'zbekiston». 1996, 277-bet.

3. Prezidentimiz I.Karimov asarlarida ma'naviyat masalalari.

Prezidentning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida, Markaziy Osiyoda yer Alloh taoloning bebaho in'omidir, u tom ma'noda odamlarni boqadi, kiyintiradi degan qimmatli fikr bor. Uning ana shu hikmatlarga boy so'zlarida Yaratganning ajoyib tuhfasini bo'lgan Yerimizning qadr-qimmati, saxovati va insonlar taqdirida tutgan beqiyos o'rni o'z ifodasini topgan.

Inson tabiat farzandi. Yer inson uchun oltin beshikdir. Oliy mavjudot bo'lgan inson zoti oliylarining unib-o'sishi, parvarishlanishi, yer, suv, havo, tuproq va boshqa tabiiy javohirlarga bog'liq. Inson tabiat bilan tirik. Odamizot jisman va ma'nan tabiat bilan bog'liq, Qadimgi yunon afsonasi qahramoni Anteyni bilmaydigan odam topilmasa kerak. U raqiblariga qarshi kurashda holdan toygan vaqtlarida ona yerga bag'rini tegizar va shu bilan unga yana kuch-qudrat qaytarkan. Uni faqat yerdan uzib, hech joydan kuch ololmaydigan bo'lganidan keyingina raqiblari uni engay olganlar. Yer o'z farzandi hisoblanmish insonni jamiki boyliklar, noz-ne'matlar bilan ta'minlaydi. U insonni yediradi, ichiradi, kiyintiradi, qanchalik sahovati bo'lsa undan ayamaydi. Yer insonning shod-u xurramlikda yashashi uchun bor bisotini ayamaydi. Ona Yer inson uchun xazina, javohirlar sandig'idir.

Islom Karimov o'zining asarlarida Ona Yerni mo'tabar bilib uni e'zozlab asrash, ardoqlash, husniga husn qo'shishga intilish, har bir odamning insoniy burchi, ma'naviy-axloqiy komillik belgisi ekanligini uqtirib kelmoqda. Sharq mamlakatlarida azal-azaldan erga mehr-muhabbat ma'naviy yetuklik belgisi ekanligini eslatib, o'zining quyidagi fikrlarini bayon etadi: «Ma'naviy-ruhiy tiklanish insonni yerga va uning boyliklariga bo'lgan munosabatini ham o'z ichiga olishi lozim. Sivilizatsiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa, qishloq xo'jaligi ming yillar mobaynida butunlay sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan mintaqada yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir. Yer, havo, suv va olov (Quyosh)

Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning Zardo'shtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan»¹.

Islom Karimov ta'riflaganidek, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, umuman insonlarga hurmat va ishonch singari ma'naviy-axloqiy fazilatlar ham ma'naviyatning keng ma'noliligini ifodalaydi. Farzandlarning dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan, tarbiyalab o'stirgan ota bilan onani dunyoda eng ulug', eng mo'tabar zotlar, - deb bilish Alisher Navoiy xazratlari ta'birlari bilan aytganda, ulardan birini quyosh, yana birini oy deb e'zozlash har bir farzandning insoniy burchi, ma'naviy-axloqiy barkamolligi belgisidir.

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy «Kimyoi saodat turki» asarida xesh-aqrabo va urug'-qarindoshlarga yordam berish har bir odam ma'naviy barkamol insonligining ko'rsatkichlaridan bo'lib hisoblanishini uqtirib shunday degan edi: «Odamga yaxshilik qilish savob ish. Har qandoq kimsaga yori (yordam) berish, xudo yo'lga qilingan xayr birla barobardur. Avval ota-ona, so'ng xesh-aqrabolar va so'ng muhtoj avom va darveshlarga yori ko'rsatmaklik darkor. Himoya shuldirkim, kishilar inoq, toat-ibodatda, sabr-toqatda, birlikda yashag'aylar...Rasul alayhissalom aytdilar, hamsoyalar haqi ushbudirkim, agar sendan yori tilasa, qarz bergil. Agar darvesh bo'lsalar, madad qilgil, agar kasal bo'lsa, inoyat qilg'il. Agar o'lsa, janoza orqasidan borgil, agar shod bo'lsa, muborakbod qilg'il, agar g'amgin bo'lsa, tasalli bergil... Va har namarsa yesang, hamsoyanga chiqargil, chiqara olmasang hamsoyang farzandlari qo'lig'a non bergil.

Hamsoyanga oshxona tutuni birla ozor bermagil... Hamsoyangni aybini yopg'il, (boshqalarning) g'iybat so'zlariga quloq solmag'il... Har vaqtgi osh pishirar bo'lsang, ko'proq qilg'ilkim, toki hamsoyalarga ham bergaysan»². Buyuk allomaning o'zaro mehr-oqibat, muruvvat, saxovat ko'rsatish zarurligi xususida bundan necha-necha zamonlar oldin bildirgan o'g'itlari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini to'la saqlab kelmoqda.

¹ Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston». 1997, 145-bet.

² O'zbekim. «Vatan» seriyasi. T., 1992, 246-bet.

Prezident asarlarida har doim uqtirilib kelinayotganidek, kattalarni hurmat qilish, ularning yoʻl-yoʻriqlari va oʻgitlariga amal qilish, oila farzandlar toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik bilan munosabatda boʻlish, oʻzgalar kulfatiga hamdardlik qilish va samimiy yordam berish maʼnaviy-axloqiy munosabatlarning meʼyori hisoblanadi.

Iymon, ixlos, eʼtiqod, vijdon, ishonch, sharm-hayo singari insoniy xislat va fazilatlarni ham Islom Karimov asarlarida maʼnaviyatning unsurlari sifatida eslatib oʻtadi. Yuksak maʼna-viyat va maʼrifat sohibi boʻlgan kishilar vijdonlari, iymon-eʼtiqodlariga teskari ish qilmaydilar, oʻz qilmishlarini maʼnaviy-axloqiy, huquqiy mezonlar asosida belgilaydilar. Vijdonli, iymon-eʼtiqodli kishi adolatsiz ishlarga yoʻl qoʻymaydi, nohaqlikka nisbatan murosasiz boʻladi, ijtimoiy adolat qaror topishi va mustahkamlanishi yoʻlida oʻzida mavjud boʻlgan imkoniyatlarni ishga soladi hamda foydalanadi. Shaxsning oʻz amaliy faoliyati va qilmishlariga oʻzi xolisona va odilona baho bera olishi, yutuqlaridan gʻururlanib ketmasdan, yoʻl qoʻygan xato va kamchiliklaridan afsuslanishi ham maʼnaviyat, odob-axloq belgisidir.

Yurtboshimiz ana shularni oʻzining nazariy taʼlimotida chuqur va mukammal yoritgan. Maʼnaviyat haqidagi oʻzining falsafiy qoida va xulosalarida vijdon, iymon-eʼtiqodni «Insonni inson darajasiga koʻtaradigan asoslarni asosi» deb koʻrsatadi. Bu haqda yana shunday deydi: «Maʼnaviyatda insonning iymoni, eʼtiqodi, axloqi, hayotning maʼnosini qanday tushunishi, ichki dunyosi namoyon boʻladi. Vatan, xalq oldidagi burchni anglash ham yuksak maʼnaviyat belgisidir. Maʼnaviy barkamol - inson oʻzining savobli ishlari bilan kechirgan hayotidan rozi ketadi»¹.

Maʼnaviyatning maʼnosi, mohiyati aytib oʻtilganlardangina iborat emas. U nihoyatda keng va chuqur maʼnolidir. Har bir shaxsning odamlar bilan oʻzaro hamkorlik va hamjihatlikka, ahillikka, muloqotga, doʻstona munosabatga intilishi ham maʼnaviyatdir. Bilimli, dunyoqarashi keng odamlar oʻzaro aloqa va munosabatda millat ajratmaydi. Dini, tili, iymon-eʼtiqodi, dunyoqarashi, rangi, jinsidan qatʼi nazar hamma odamlarni Allohning bandasi, deb eʼtirof etadi va hurmat qiladi. Ana shu maʼnoda olganda jamiyatning oʻzi ham, xalqlar, millatlar, davlatlar

¹ Islom Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi, 5-jild. T., «Oʻzbekiston», 1997, 149-bet.

o`rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik va intellektual hamda har xil aloqalar ham ma`naviyat-ma`rifatga asoslangan munosabatlarning ifodasidir.

Ma`naviyat xalqni-xalqlar, millatni-millatlar, davlatni-davlatlar bilan yaqinlashtiradi, do`stlik, hamkorlikni mustahkamlaydi, kishilar o`rtasidagi ishonch mehr-oqibatni kuchaytiradi. Bu haqida Islom Karimov o`zining «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li» asarida shunday deydi: «Ma`naviyat turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qardosh qiladi. Ularning taqdirini o`zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning ma`naviyatimiz asrlar davomida million-million kishilar taqdiri bilan shakllangan»¹.

Inson o`z hayoti va faoliyatini boshqa odamlar ta`siri va ko`magisiz tasavvur etolmasligini chuqur anglab yetishi ham uning ma`naviy-ma`rifiy yetukligi bilan bog`liqdir. Islom Karimov ta`biri bilan aytganda, «Inson o`zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o`ylab, mehnat qilib yashagandagina ma`naviyat bilan tutashadi»². Prezident asarlarida ma`naviyatning cheksizligi haqidagi masala ham o`zining chuqur ilmiy-nazariy ifodasini topgan. Ma`naviyatning cheksiz, bepoyonligi insoniyatning unga bo`lgan talab va ehtiyojining benihoyaligi bilan belgilanadi. Insonning moddiy buyumlarga bo`lgan ehtiyojlari qanchalik muhim va zarurligiga qaramasdan uni sekin-asta qondirish, xalqning hayot darajasini ko`tarish, odamlarning daromadini yaxshilash mumkin. Ammo ma`naviy ehtiyoj cheksizdir. Ma`naviyatning cheksiz va bepoyonligi jamiyat taraqqiyotining uzluksizligi bilan belgilanadi. Islom Karimov ma`naviyatning serqirra va keng ko`lamliligi, rivojlanish imkoniyatlarining cheksizligi haqidagi nazariy ta`limotini ifodalab, «Uni o`lchab ham, poyoniga etib ham bo`lmaydi. U - inson uchun butun bir Olam» - deydi³.

Ma`naviyat inson uchun muhim hayotiy ehtiyojdir. Ma`naviyat insonga ruhiy kuch-quvvat bag`ishlaydi. Ruhiy kuch-quvvat tufayli u unadi-o`sadi, kamolotga erishadi. Ma`naviyatning inson uchun naqadar muhim va zarurligining, odamzod usiz yashay olmasligi va faoliyat ko`rsata olmasligining sababi, mohiyati ana shunda,

¹ Islom Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 80-bet

² O'sha asar, 81-bet.

³ O'sha asar, 80-bet.

«Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi»¹.

Ma'naviyatga bo'lgan talab va ehtiyojning benihoyaligi xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilmiy asoslab berilgan nazariy qoida va xulosani hech bir ikkilanmasdan barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar taraqqiyotiga qo'shilgan eng muhim yangilik, deb baholash mumkin.

Prezident asarlari ma'naviyatning asosi nimalardan iboratligi haqidagi murakkab nazariy masala mohiyatini ilmiy yoritib berganligi sababli ham muhim amaliy qimmatga ega.

Islom Karimov ma'naviyatning asosi, ma'naviy yetuklikning muhim belgisi nimadan iboratligini ilmiy asoslab, bu masalada kishilar e'tiborini odob-axloq masalasiga tortadi. «Aslini olganda, - deydi bu haqida u axloq-ma'naviyatning o'zagi»dir². Prezidentning ana shu qisqagina fikrida jild-jild kitoblar bag'riga sig'dirib bo'lmaydigan ma'no va mazmun bor. Haqiqatan ham ma'naviyatning ibtidosi-axloqdir. Poydevorsiz bino, ildizsiz daraxt bo'lmaganidek, axloqqa tayanmagan va asoslanmagan ma'naviyat ham bo'lmaydi.

Insonning insonligi, ma'naviy etuk va barkamolligi, eng avvalo, uning odob-axloqliligida namoyon bo'ladi. Odob-axloqning ma'nosi nihoyatda keng. Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, «Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas».

Prezidentning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «Istiqlol va ma'naviyat», «Halollik va fidoyilik-faoliyatimizning mezoni bo'lsin», «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi» nomli asarlarida ma'naviyatning o'zagi va muhim tarkibiy qismi hisoblangan axloq va odobning serqirraligi, jamiyat hayotining va inson faoliyatining barcha sohalarida har tomonlama ifodalanishi, uning mohiyati va asosiy sabablari ilmiy-nazariy asoslab berilgan. O'sha qomusiy asarlarda belgilab

¹ O'sha asar, 80-bet.

² Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir, 3-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 39-bet.

berilganidek, kamtarlik, oq ko`ngillilik, samimiylik, muruvvatlilik, shirinso`zlik, xushtabiatlik, sahovatlilik, oqibatlilik, mehribonlik, inson axloqiy barkamolligining muhim jihatlaridan bo`lib hisoblanadi.

Yurtboshimiz insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlari qatoriga adolatparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik kabi ko`rinishlarini ham kiritadi. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlangan axloqiy qonun-qoidalar, me'yorlar, dastur va tuzuklar jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-mafkuraviy, millatlararo hamda xalqlararo munosabatlarda, shu bilan birga ko`pchilik kishilar, jamoalar, tashkilotlar, korxonalar, muassasalar, ijtimoiy guruh va tuzilmalar o`rtasidagi aloqalarda ham namoyon bo`ladi. Islom Karimov ta'limotida kishilardagi axloq, odob zaminida e'tiqod, ixlos, vijdon, iymon shakllanadi, degan nazariy qoida katta o`rin tutadi. Bu haqda u «Axloq - bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani»dir deydi¹. Axloqiy qoidalar, qadriyatlar va mezonlarga rioya qilish inson ma'naviy kamoloti-ning zarur shartlaridan biridir. Jamiyat, xalq va millatning axloqiy qoidalariga amal qiladigan kishilar boshqalarga ozor etkazmaydi, takabburlik qilmaydi, hech kimga haqorat ko`zi bilan qaramaydi, haromdan hazar qiladi, nopoklikka, ta'magirlikka, poraxo`rlikka, tengsizlikka nisbatan murosasiz bo`ladi.

Prezident o`zining ana shu nazariy qoida va g'oyasini yanada rivojlantirib, «O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» asarida shunday deydi: «Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo`ladi. Vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o`zini ayamaydi. Buning aksi o`laroq, yolg'onchi, va'daboz kishida vatanparvarlik tuyg'usi bo`lmaydi. Manfaatparastlik yo`lida qilingan har bir qing'ir ish, u qanchalik balandparvoz ta'rif-tavsiflarga o`ralmasin, fatvolar to`qib chiqarilmasin, baribir Vatanga xiyonatdir»².

Dilozorlik, qo`pollik, qo`rslik, xudbinlik, johillik, ta'magirlik, mahalliychilik, urug'chilik, hasadgo'ylik, baxillik va shu kabilarga hayotning ikir-chikirlari deb

¹ O'sha asar, 39-bet.

² O'sha asar, 39-bet.

qaramaslik kerak. Jamiki salbiy xislat va fazilatlar hayotimiz, milliy istiqbolimiz qadriga etmaslik, sofdil va mehnatsevar xalqimizning insoniyligi va olijanobligini ko'ra olmaslikdan boshqa narsa emas. Har qanday ig'vo, fisq fujur, buhton, quruq tuhmat, qo'rslik, o'zgalarning or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazishga intilishni ijtimoiy taraqqiyotimizga, mustaqilligimiz mustahkamlanishiga halaqit qiluvchi qusurlar deb qaramog'imiz va bundaylarga murosasiz bo'lmog'imiz lozim.

Islom Karimov asarlarida ilmiy-nazarni asosda belgilab berilishicha, ma'naviyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan yana biri-ilm, bilim, fan-texnika asoslarini egallash, o'rganishdir.

Ma'naviyat o'z-o'zidan emas, balki muayyan axloqiy kamolot, kishilarning bilimlari, fan-texnika yutuqlari, odamlar ilmiy tafakkuri salohiyati zaminida shakllanadi va chuqur ildiz otadi. Prezidentning nutqlarida, asarlarida bilim va bilimdonlik ma'naviyatning tamal toshi ekanligi, bilimga ehtiyoj ob'ektiv zaruriyatni ongli tushunish bilan bog'liq bo'lgan ma'naviyatliligi nazariy asoslab berilgan. Bunga Islom Karimovning quyidagi fikrlari misol bo'ladi: «Dunyoning demokratik qadriyatlaridan bahramand bo'lishda aholining bilimdonligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Faqat bilimli, ma'rifatli jamiyatgina demokratik taraqqiyotning barcha afzalliklarini qadrlay olishini va aksincha bilimi kam, omi odamlar avtoritarizmni va totalitar tuzumni ma'qul ko'rishini hayotning o'zi ishonarli tarzda isbotlamoqda»¹.

Prezidentning ana shu so'zlari mazmunida yotgan chuqur falsafiy, tarbiyaviy g'oyalarni o'rganish va hayotda ularga amal qilish inson ma'naviy kamolotida katta o'rin tutadi.

Chunki ma'naviyat asosi bo'lgan ilm inson uchun bamisoli gavhardir. Ilm o'z sohibini pastdan yuqori ko'tarib martabasini ulug' qiladigan boylikdir. Ilm insonga hayotda yo'ldosh, sirdosh va ko'makdoshtir. Dunyoda har qanday muammo va tugun ilm, aql-idrok va tafakkur yordamida shak-shubhasiz yechiladi.

Ilmli odam madaniyatli, ma'naviyatli, kamtarin-kamsuqum bo'ladi, andishasizlik, behayolik qilmaydi. Donlari ko'p va yirik bo'lgan boshloqlar har doim

¹ Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997, 150-bet.

yerga egilib turganlaridek, ilimli kishilar ham andishali-hayoli, soʻzlari maʼnoli, fikri oʻtkir boʻladi. Ilimli kishi shirinsuxan, xushchaqchaq, dilkash va odamshavanda boʻladi. Bunday odamni barcha izzat-hurmat qiladi.

Pul, mol-dunyo sarflangan sari kamayadi. Bugun bor boʻlsa, ertaga boʻlmasligi mumkin. Bilim shunday boylikki, sarflangan sari koʻpayaveradi.

Maʼnaviyatning Prezident Islom Karimov tomonidan nazariy asoslab berilgan tarkibiy qismlariga iymon, eʼtiqod, ixlos, vijdon ham kiradi. Qalbida iymon-eʼtiqodi mustahkam boʻlmagan odamni maʼnaviyatli inson deb boʻlmaydi. Undaylar beburd, subutsiz, yaramas, razil, diyonatsiz kimsalar hisoblanadi. Iymonsiz va eʼtiqodsiz kishilardan vatanparvar ham, xalqparvar ham chiqmaydi.

Eʼtiqodli odam oʻz fikri va qarashlarida astoydil turadi, gʻoyasidan qaytmaydi. Vatani, xalqi uchun xizmat qilishni oʻzining qalb amri, hayotining mazmun-mohiyati deb biladi¹. Insonning maʼnaviy barkamolligi uning ichki dunyosida, iymon-eʼtiqodining mustahkamligida, xalqi, Vatani uchun savob ishlarni koʻproq qilishida namoyon boʻladi.

Islom Karimov savob va ezgulikning boqiyliqi, har bir inson bu dunyoda oʻzining hayotidan rozi, mamnun boʻlib ketmogʻi uchun koʻzi ochiqligida savobli ishlarni koʻproq qilmoqqa shoshilmogʻi lozimligini uqtirib shunday deydi: «Dunyo oʻtkinchi. Doʻppini bir bor aylantirguncha oradan shitob bilan necha yillar oʻtib ketadi. Oʻzligini anglab etgan, qalbiga quloq solgan har bir inson oʻziga, men bu foni dunyoda nima ish qildim, yana qanday ishlar qilishga vaqtim va qurbim etadi, degan savolni berishi kerak. Ana shu savol inson qalbini tozartiradi, uni bosavob, ezgu ishlarga chorlaydi»².

Maʼnaviyatning ruknlari-ustunlaridan boʻlgan eʼtiqod ixlos zaminida shakllanadi. Iymon, ixlos har bir gʻoya, tushuncha va bilimning eʼtiqodga aylanishidagi zaruriy bosqichdir.

Maʼnaviyatning Islom Karimov tomonidan ilmiy-nazariy asoslab berilgan barcha tomonlari, qirralari, tarkibiy qismlarning barchasi birlashib shaxsning

¹ Islom Karimov. Oʻzbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-jild. T., «Oʻzbekiston», 1996, 27-bet.

² Islom Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi, 5-jild. T., «Oʻzbekiston», 1997, 149-bet.

dunyoqarashi mafkuraviy e'tiqodi tizimi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, jamiyatning mustahkamlana borishi va rivojlanishiga olib keladi. Jamiyat, davlat, xalq millat va shaxs ma'naviyati uning barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita va bilvosita ta'sir etib turishi jarayonida rivojlanadi.

Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyat ma'naviy kamoloti bir-biri bilan uzviy bog'langan madaniy, ma'rifiy, aqliy, axloqiy, ilmiy va mafkuraviy tizimlarning uzviy birligi asosida amalga oshishi haqidagi nazariy muammo ham chuqur yoritilgan.

Milliy ong singari mafkura ham ma'naviyatning tarkibiy qismidir. Ana shu ma'noda ularni o'zaro ajratish, bir-birisiz tasavvur etish mumkin emas. Mafkura jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotiga maqsad va yo'nalish beradi.

Islom Karimovning olimu fuzalolar tomonidan allaqachon e'tirof etilgan ulkan ilmiy-nazariy xizmatlaridan biri - milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotga joriy etish hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini isbotlab berganligidadir.

4. Ma'naviyat sohasida amalgam oshirilayotgan islohatlar

Bugungi kunda yoshlarda ma'naviyatni tarbiyalash masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzliksiz e'tibor berib kelinmoqda.

Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qudratli ma'naviyat zahirida mavjudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma'naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi. Davlatimiz rahbari shu bois ham ma'naviyat va ma'rifatga doimo katta e'tibor berib kelmoqda. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o'zligini tanib, o'z shaharasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Yoshlarda ma'naviyatni yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohatlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lida ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma'naviy, mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma'naviyatimiz yuksala bordi.

Yurtboshimiz Islom Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yolida» asarida ta'kidlaganidek: «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yolidan muvaffaqiyatli olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir...»¹. Haqiqatan faqat ma'naviy erkin va ozod shaxslar teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishlari mumkin. Boshqacha aytganda, faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohatlarga tayyor bo'lishi mumkin².

O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Shu ma'noda

¹ Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. 299-300-betlar.

² Qarang: O'sha joyda, 306-bet.

yurtboshimiz Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» nomli ma'ruzalaridagi quyidagi fikrlariga e'tiborni qaratmoq lozim: «Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat»¹.

Zamonaviy intellektual salohiyatli, yuksak aql zakovat sohibi, mustaqil fikrni erkin bildiradi oladigan, milliy g'oyaning tub ma'no mazmunini anglaydigan va ularga sodiq bo'lgan, dunyoqarashi keng, sog'lom fikrli, mahallasi, uyi tinchligi uchun jonini fido etishga tayyor turuvchi o'z Vatani dovrug'ini jahon uzra keng yoyadigan haqiqiy bunyodkor shaxsni tarbiyalash uchun ma'naviy – ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlarining o'rni kattadir.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da «Yosh avlodni ma'raviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi»² deb ta'kidlanadi.

Ma'naviy – ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy taqdid va axborot xuruji kuchayib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash davom etayotgani, hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining har bir qatlami

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 25-bet.

² I.A.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq», 1998. 8-bet.

orasida ma'naviy – ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlarini tashkil etishda ijtimoiy institutlarning rolini yanada yuqori bosqichlarga ko'tarish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar deganda, aholini ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bilimni o'stirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tushuniladi

Ma'naviy va ma'rifiy targ'ibot ishlarining asosiy ish shakllari quyidagilardan iborat: Ma'ruza, ilmiy va ijodiy konferensiyalar, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy bahslar, dam olish kechalari, mavzuli kechalar, o'tkir zehnlilar bahslashuvlari, teatrlashgan kontsertlar, ommaviy tomoshalar. Marosimlar, bayramlar, festivallar, karnavallar, ko'rik – tanlovlar, targ'ibot – tashviqot guruhlar chiqishlari va hokozolar.

Yoshlar yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarda shaxslararo hissiy muloqot yana ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshlar bir – birini taniydi va ular o'rtasida muayyan hissiy munosabatlar mavjud. Shuning uchun ularda paydo bo'layotgan hissiyotlarning bir-biriga o'tishi oson va tez ko'chadi. Bundan tashqari ana shu o'tish jarayonida hissiyotlarning kuchayishi bir-biri bilan tanish bo'lmagan tomoshabinlar orasidagiga nisbatan yuqoriroq darajada yuz beradi.

Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarning ruhiy – emotsional ta'siri juda murakkab psixologik jarayon bo'lib, ularning markazida ijtimoiy fasilitatsiya va induktsiya jarayonlari yotadi. Tomoshabinlarga sahnadagi ijrochilarning ta'sir etib ularda hissiyotlarni yuzaga keltirishi fasilitatsiya jarayoni deyiladi. Fasilitatsiya jarayonida tomoshabinlarning faqat sahnadagi ijrochilargagina emas, balki bir – biriga ham ruhiy ta'sir o'tkazishi va har bir tomoshabinlardagi kechinmalarning kuchayishi induktsiya hodisasi deyiladi.¹

Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar asosida barkamol shaxsni yaxlit holda shakllantirishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

- yoshlarning ongi, his-tuyg'usi, xulqiga ta'sir etish;
- yoshlarning tashqi ta'sir asosida o'z-o'zini tarbiyalashi;

¹ Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: 2009.

- shaxs tarbiyasi bilan bog'liq barcha sohalarning o'zaro aloqasi;
- shaxsda ma'naviy tarbiyani shakllantirishda aqliy, axloqiy, estetik va boshqa tarbiyaning tarkibiy qismlarining uyg'unligiga erishish;
- shaxsda ma'naviy tarbiyani shakllantirish jarayonining tizimliliigi;
- yoshlarning aqliy salohiyatini inobatga olish.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizning hozirgi zamondagi dolzarb vazifalaridan biri- yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, milliy g'oyamizni nazariy jihatdan yanada takomillashtirishdan iborat. Yoshlar yoshlarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish orqali ularning dunyqarashini, shaxsiyatini shakllantirish bugunning dolzarb masalasidir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar esa yoshlar yoshlarni ma'naviy-axloqiy, milliy – ma'naviy ruhda tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni yangi ta'lim modelining kuchli samarasiga erishamiz, degan fikr bugun amalda o'z tasdig'ini topayotganini muallif mamnuniyat bilan e'tirof etadi.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bimalol gaplasha oladigan minglab o'quvchilar, katta hayotga yo'llanma olayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlari misolida ana shunday orzu-intilishlari bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Eng muhimi shundaki, «portlash effekti»ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o'tishi bilan, tobora kamol topayotgan sog'lom va barkamol avlodning hayotga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish,

yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratgani ushbu asarda ishonch bilan ta'kidlanadi.

Jamiyatimiz uchun munosib, yetuk kadrlar tayyorlash uchun yana qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim degan savol tug'iladi. Buning uchun, ta'lim muassasalarida milliy g'oya fanini o'qitishda interfaol usullardan keng foydalanmoq maqsadga muvofiq. Unda jamiyatimiz ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan muhim ma'naviy-siyosiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari yorqin misollar bilan tushuntirib borilmog'ida lozim. Ayniqsa yoshlarning mafkuraviy tarbiyasiga alohida e'tibor bermoq zarur. Chunki mafkuraviy tarbiya – yoshlarni, O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qilishda munosib shaxs, komil inson va etuk kadr qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy tarbiya ta'lim-tarbiya tizmining barcha bo'g'inlarida va yo'nalishlarida amalga oshiriladi. Oiladan boshlab, maktabgacha ta'lim, o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy o'quv yurti muassasalarida uzluksiz, har qanday o'zibolarchilikka yo'l qo'ymay, izchil ravishda amalga oshirilishi lozim. Shundagina ishonch bilan aytish mumkin xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, yuksak fazilatli komil insonlarni voyaga yetkazish, yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs, jamiyat uchun kerakli kadr qilib tarbiyalashda ijtimoiy-siyosiy bilimlar, milliy g'oya targ'iboti favqulotda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda yangicha tafakkur yuritish, zamon talablari asosida ijtimoiy-siyosiy fanlarni, ayniqsa milliy g'oya targ'ibotini tashkil qilish o'ta jiddiy va dolzarb bo'lib qolmoqda. ¹Zero, yoshlarning ma'naviy kamoloti, har qanday mamlakat, jamiyat, xususan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartidir. Shu o'rinda milliy g'oya tushunchasiga to'xtalib o'tish joyiz. Milliy g'oya to'g'risidagi fikrni, uning mazmun mohiyatini faylasuflar, siyosatshunos olimlar turli davrlarda turlicha sharxlanganlar. Bu masala milliy ongni shakllantirish, millatni muayyan mafkura g'oya atrofida jipslashtirish, jamiyat rivojlanishi ma'lum bir aniq maqsad sari yo'naltirish bilan bog'liq holda yoritiladi.

¹ "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // Xalq so'zi. - Toshkent: 2006. - 25 avgust.

Bugungi kunda ta'limdagi uzviylikni ta'minlash maqsadida maktab ta'limiga ham jiddiy e'tibor berilmoqda. 2004 yilning 19 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2008 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoyishi e'lon qilindi. Unga ko'ra umumiy ta'lim maktablari moddiy-texnika bazasining holatini o'rganish hamda 2004-2008 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Dasturini ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi va uning vazifalari ko'rsatib berildi.

O'sha davrdagi ahvolga baho berib, Prezident I.A.Karimov ta'kidlagan edi: “bugungi kunda respublikamiz maktablarida 6 million 200 ming nafar farzandlarimiz ta'lim olmoqda, mavjud 9 ming 700 ta umumta'lim maktabining har uchtdan bittasi o'quv standartlari talablariga javob bermaydigan moslashtirilgan binolarda joylashgan, 88 maktab esa ayniqsa, nochor holatda ekani barchamizni tashvishga solmasligi mumkin emas. Ayrim maktablarda bolalar ikki hatto uch smenada o'qishmoqda. Hozirgi paytda maktablarning yarmidan ko'pi kompyuterlar bilan jihozlangan va faqat 141 ta maktab internet tizimiga ulangan”¹.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, maktablarni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalasi ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Buni o'qituvchilarning 30 foizidan ortig'i oliy ma'lumotga ega emasligi ham ko'rsatib turibdi.

¹ “Erishgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo'lidan izchil borish - asosiy vazifamiz”. Prezident I.A.Karimovning 2003 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari 2004 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. «Ma'rifat» gazetasi 11 fevral 2004 yil.

XULOSA

Xulosa o`rnida shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki bugungi kunda ma`naviyat sohasiga berilayotgan e`tibor davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Buni birgina 1994-yil 23-aprel kuni “Ma`naviyat va ma`rifat” jamoatchilik markazining tashkil etilishida ham ko`rishimiz mumkin.

Bugungi kunda yoshlarda ma`naviyatni tarbiyalash masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzliksiz e`tibor berib kelinmoqda.

Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qudratli ma`naviyat zahirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma`naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi. Davlatimiz rahbari shu bois ham ma`naviyat va ma`rifatga doimo katta e`tibor berib kelmoqda. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o`zligini tanib, o`z shajarasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Yoshlarda ma`naviyatni yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohatlarning birinchi bosqichida milliy ma`naviyatni yuksaltirish yo`lida ko`zlangan maqsad to`la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo`lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma`naviy, mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma`naviyatimiz yuksala bordi.

Yurtboshimiz Islom Karimov «O`zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yolida» asarida ta`kidlaganidek: «Xalqning ma`naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o`ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yolidan muvaffaqiyatli olg'a siljishida hal qiluvchi, ta'bir joiz bo`lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir...»<sup>1</sup>. Haqiqatan faqat ma`naviy erkin va ozod shaxslar teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishlari mumkin. Boshqacha aytganda, faqat ma`naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohatlarga tayyor bo`lishi mumkin².

¹ Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. 299-300-betlar.

² Qarang: O'sha joyda, 306-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2011.-39 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.-64 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.-64 b.
4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni // Xalq so'zi, 1995 yil 29 dekabr.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. -176 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: - Toshkent: Adolat, 1998. - 17-tom. - B. 3-15.
6. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni: // O'zbekistonning yangi qonunlari. - Toshkent: Adolat, 1998.-18-tom.-B. 3-36.
7. Madaeva Sh. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. - Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. - 128 b.
8. Mahmudov M. Mustaqillik va ma'naviyat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari asosida). - Toshkent: Sharq, 2001.-160 b.
9. Ma'naviyat yulduzlari / Xayrullaev M.M. tahriri ostida. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999. - 392 b.
10. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. - Toshkent: Fan, 1994. - 135 b.